

BOSHLANG'ICH SINIF SAVOD O'RGATISH DAVRI YOZUV DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17457425>

Qurbonboyeva Zuhra Davlatboy qizi

*GulDPI boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3 – bosqich talabasi
e-mail qurbonboyevazuhra760@gmail.com*

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf savod o'rgatish darslarining samarali tashkil qilinishi va bu bu darslar orqali o'quvchilarda kreativ fikrlashni o'stirish, ularning nutqini boyitish asosiy masala sifatida ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar

integrativ yondashuv, Harakatlar strategiyasi, kitobxonlik, elementar o'qish va yozish, nutq, tafakkur, logoped, bog'lanishli nutq, adaby nutq, adabiy me'yor.

АЗВИТИЕ РЕЧИ НА УРОКАХ ПИСЬМА В ПЕРИОД ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ В НАЧАЛЬНОМ КЛАССЕ

Курбанбоева Зухра Давлатбоевна

*Студент начального образования ГулДПИ, 3-й этап
e-mail qurbonboyevazuhra760@gmail.com*

Абстрактный

В статье освещаются ключевые вопросы эффективной организации занятий по обучению грамоте в начальной школе, развитию творческого мышления учащихся и обогащению их речи на этих занятиях.

Ключевые слова

интегративный подход, стратегия действия, чтение, элементарное чтение и письмо, речь, мышление, логопед, связная речь, литературная речь, литературная норма.

SPEECH DEVELOPMENT IN WRITING LESSONS IN THE PRIMARY GRADE LITERACY PERIOD

Kurbanboyeva Zuhra Davlatboy's daughter

*GulDPI primary education direction 3rd stage student
e-mail qurbonboyevazuhra760@gmail.com*

Abstract

This article presents the main issues of effective organization of primary school literacy lessons and the development of creative thinking in students through these lessons, as well as the enrichment of their speech.

Keywords

integrative approach, Action Strategy, reading, elementary reading and writing, speech, thinking, speech therapist, connected speech, literary speech, literary norm.

KIRISH. Jahon ta'lim muassasalarida ona tili va adabiyot fanlarini o'qitish metodikasini integrativ yondashuvlar asosida takomillashtirishning kognitiv mexanizmlari ta'lim tizimiga tatbiq etilgan. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida maktab ta'limi mazmunini har o'n yillikda takomillashtirish, o'quvchilar tomonidan boshlang'ich ta'lim ma'lumotining samarali o'zlashtirilganini ta'minlashning me'yoriy asoslarini rivojlantirish, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqish va ishtiyoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilarning kitobxonlik tajribasi hamda axborotlardan maqsadli foydalanish malakalarini rivojlantirish, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishda badiiy-irodaviy, hissiy-estetik koniyatlarni kengaytrish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

“O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi” da “umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish hamda ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash” kabi yo'nalishlar ustuvor vazifalar sifatida belgilab berildi. Bu esa ta'limning dastlabki bosqichlaridan o'qitish metodikasini takomillashtirishni ham taqozo etadi.

Maktabda o'qitish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. “Alifbe” ga asoslangan holda qisqa vaqt ichida o'quvchilar o'qish va yozishga o'rgatiladi, ya'ni o'qish va yozish ko'nikmasini egallaydilar. Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish harakatini maqsadga muvofiq tarzda bajara olish o'qish va yozish ko'nikmasi hisoblanadi. Bu ko'nikma bilimni talab qiladi, chunki har qanday ko'nikma bilim bilan chambarchas bog'liq.

O'qish va yozish nutqqa oid malaka hisoblanib, u kishi nutq faolyatining turidir. O'qish faoliyati ham, yozish faoliyat ham nutq faoliyatining boshqa turlari bilan, ya'ni og'zaki hikoya qilish, o'zgarlar nutqini tinglash orqali tushunish, ichki

nutq bilan uzviy bog'liq holda shakllanib boradi. Maktabda o'qitishning muvaffaqiyati savod o'rgatishning qanday tashkil etilganligiga bog'liq.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish va takomillashtirish masalasida respublikamiz, MDH davlatlari hamda xorijlik olimlar ilmiy izlanishlar olib borga bo'lib, ushbu tadqiqotlarda bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirishda bir qator ahamiyatli jihatlar qayd etiladi. Savod o'rgatish davrida nutq o'stirishga oid ish turlariga atrofda jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarini aytish, predmetlarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum bir mavzuda (kuz, mevali bog', sinf, maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yig'iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gapga aylantiradilar. Ular o'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar. Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirishdir. Nutq o'stirish uch yo'nalishda :

- So'z ustida ishlash;
- So'z birikmasi va gap ustida ishlash;
- Bog'lanishli nutq ustida ishlash

orqali amalga oshirilishi metodik adabiyotlarda qayd etilgan.

Savod o'rgatish darslarida ham yuqoridagi uch yo'nalish bo'yicha ishlar olib boriladi. Ona tilidan olib boriladigan ishlar, shuningdek, savod o'rgatish ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirish bilan bog'liq holda uyushtiriladi. Savod o'rgatish davridagi ishlarning miqyosi keng bo'lib, ekskursiyalar, bolalarning kuzatishlari, predmet darslar, rasm yuzasidan suhbat va shu kabilar bilan bog'lanadi. Bu davrda ham o'quvchilar nutqini yanada o'stirishning vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi :

- 1) o'quvchilar nutqidagi kamchiliklarni to'g'rilash;
- 2) ularning tasavvur va tushuncha doirasini kengaytirish bilan bog'liq holda lug'atini boyitish;
- 3) o'quvchilar nutqidagi ayrim so'zlarning ma'nosiga aniqlik kiritish;
- 4) gap va uch-to'rt gapli kichik "hikoyacha" (bog'lanishli nutq) ni og'zaki to'g'ri tuzish ko'nikmasini o'stirish.

Bolalar ushbu davrda, birinchidan, ish qurollari, tabiatdagi narsalar, kiyim-kechak kabi predmetlar bilan tanishish yordamida so'zni ongli ishlatishga; ikkinchidan, turli sodda yig'iq gap (O'quvchilar yozyaptilar), sodda yoyiq gap (Ali maktabga bordi), uyushiq bo'lakli gap (Salim yugurdi va g'olib bo'ldi) tuzadilar. Bu mashqlar amaliy-mashqlar yordamida egallaydilar.

Bolalarning nutq o'zlashtirishi uchun asosiy manba ularning shaxsiy tajribalari, kishilar hayoti va tabiatni kuzatishlari hisoblanadi. Qiziqarli suhbat uchun narsalar, uy-ro'zg'or buyumlari, o'simliklar, hayvonlar kabilar muhim mavzular sifatida xizmat qiladi. Suhbat jarayonida bolalarda hosil qilingan tasavvur asosida aniq tushunchalar shakllanadi.

Savod o'rgatish davrida nutq o'zlashtirishga oid ish turlariga tevarak-atrofdagi jonli predmetlarning nomini, ularning belgilarni aytish, predmetlarni ma'lum belgilari asosida guruhlash kabi mashqlar kiradi. Masalan, o'qituvchining topshirig'iga muvofiq, ma'lum bir mavzuda (qish, mevali bog', sinf, maktab haqida) ikki so'zdan iborat gap tuzadilar; keyinroq esa shunday yig'iq gaplar tuzib, uni savollar yordamida yoyiq gaplarga aylantiradilar. Ular o'rgangan harflaridan so'zlar va kichik gaplar tuzib yozadilar.

O'quvchilar o'qish darslarida berilgan rasimga qarab kichik hikoyacha tuzadilar, o'qituvchining savoliga to'liq javob berishni o'rganadilar. Alifbedagi rangli chiroyli rasmlar tevarak-atrofdagi hodisa va predmetlar, hayvonlar va o'simliklarning nomini idrok etishga, bilib olishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda hayotimizning barcha jabhalari qatori oliy ta'lim sohasiga raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan o'quv vositalarini tatbiq qilish, professor-o'qituvchilar bilan birgalikda talabalarda ham ulardan fiydalana olish ko'nikmasini hosil qilish

Oliy ta'lim sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning quyidagi ahamiyatli jihatlari ko'rsatish mumkin:

Talabalar o'zlashtirishini baholashda shaffoflikni oshirish. Talabalar onlayn platformalar orqali baholanishi va bahoni o'zgartirish imkoni yo'qligi.

Fanlarni o'zlashtirish imkoniyatining oshirilishi. Raqamli didaktika onlayn kurslar, elektron darsliklar, video darslar va boshqa raqamli resurslar orqali bilim olish imkoniyatini oshirish imkonini beradi. Ma'lum sabablarga ko'ra an'anaviy dars jarayonlariga qatnash olmayotgan o'quvchilar onlayn platformalarga joylangan resurslar orqali fanni o'zlashtirishi mumkin.

Interfaol seminar-treninglar. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ilmiy-ijodiy izlanish olib borayotgan talabalarning faolligini oshirish maqsadida seminar-treninglar, onlayn tanlovlar tashkil etish orqali ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiriladi va rag'batlantiriladi.

Talabalar bilan individual ishlash. Onlayn platformalar orqali har bir talabaning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda topshiriqlar ishlab chiqish imkonini beradi.

Inklyuziv ta'lim rivojlantirish. Alohida ta'lim ehtiyoji mavjud talabalarga mavzular va topshiriqlarni moslashtirish imkoniyatini yaratadi.

XULOSA. Savod o'rgatish davri o'quvchilarning talaffuzini yaxshilash uchun ham asosiy jarayon bo'lib, negaki ko'pgina bolalar talaffuzida kamchiliklar bo'ladi : bir tovush o'rniga boshqasini (sh o'rniga s, r o'rniga y yoki l) talaffuz qiladilar, tovushlar o'rnini almashtirib qo'yadilar va hokazo. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun logopedlar maxsus mashqlardan foydalangan holda ish yuritadilar. O'qituvchi ham har bir darsda va darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar talaffuzini kuzatib borishi, kamchiliklarni aytib, to'g'ri talaffuz namunasini ko'rsatishi lozim.

Savod o'rgatish davridagi har bir dars jarayonida nutq o'stirish ishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Shundagina o'quvchilarda adabiy nutq (shevalar ta'sirsiz, adabiy me'yor asosidagi nutq) ko'nikmalar shakllanadi va malakaga aylanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 -son Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risda // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T .: 2017.
2. Abdixadirovna, U. D. (2022). Reviews on Preparation for the Pirls International Assessment Program. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 6, 696-700.
3. Abdikhadirovna, U. D. (2022). Possibilities of improving the methodology of preparing primary class students for the international assessment program based on digital technologies (example of pirls). *Innovation in the modern education system*, 3(25), 159-163.
4. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi // Boshlang'ich ta'lim j, - T .:1998.
5. R. Safarova va boshq. Savod o'rgatish darslari. – T .: Yangiyul poligraph service,2020.
6. S.Matchonov va boshqalar. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalarasosda tashkil etish. – T .: Yangiyul poligraph service, 2008.
7. Q.Abdullayeva. Birinchi sinfda nutq o'stirish. – T .: 1980.
8. Q.Abdullayeva, K.Nazarov, Sh.Yo'ldosheva, Savod o'rgatish darslari. – T .: O'qituvchi, 1996.

9. T. G'afforova, X.G'ulomova, G.Eshturdiyeva. 1-sinfda savod darslari. - T.: O'qituvchi,2018.
10. Utanbayeva, D. A. (2020). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 236-239).
11. Utanbayeva, D. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI PIRLS XALQARO VAHOLASH DASTURIGA SAMARALI TAYYORLASHDA BADIY MATNLAR BILAN ISHASHNING AHAMIYATI. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(4), 27-31.
12. Abdixadirovna, U. D. (2022). The role of digital pedagogy in the development of student oral and written speech in primary school mother tongue lessonst.
13. Dilrabo, E., & Dildora, U. (2023). Modern Approaches Natural Science Lessons.
14. Utanbaeva, D., & Sodiqboyeva, A. (2024, May). THE USE OF INNOVATIVE TECHNIQUES IN TEACHING TEXT ANALYSIS IN THE LESSONS OF" READING LITERACY. In *NEW RENASSAINCE CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 156-159).
15. Utanbayeva, D., & Sa'dullayeva, D. (2024). CONTENT OF TEACHING ELEMENTARY STUDENTS TO ANALYZE THE TEXT IN THE LESSONS OF" READING LITERACY". *Modern Science and Research*, 3(5), 759-762.
16. Utanbayeva, D. (2024). BOSHLANG 'ICH SINF "O 'QISH SAVODXONLIGI" DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASHDA SAVOL- TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. *Modern Science and Research*, 3(10), 485-490.